TASDIQLAYMAN
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy tadqiqot instituti direktori_____ A.Kadirov
2023-yil " 15 " sentabr

"Konstitutsiya normalarini hayotga tadbiq etish va qonun ustuvorligini ta'minlashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari" mavzusidagi maqolalar tanlovi

NIZOMI

I. Umumiy qoidalar

1. **"Konstitutsiya normalarini hayotga tadbiq etish va qonun ustuvorligini ta'minlashda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari"** mavzusidagi eng yaxshi maqolalar tanlovi (keyingi orinlarda – Tanlov) O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti (keyingi orinlarda – Institut) tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi tizimini yaratishda talaba-o'quvchilarning ishtirokini ta'minlash, ularning ilmiy-ijodiy ishlarini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilgan holda amaliyotga tatbiq qilish hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5040-sonli qarori ijrosini ta'minlash maqsadida tashkil etiladi.

2. Tanlovda oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan talaba-o'quvchilar o'zlarining ilmiy-ijodiy ish (maqola)lari bilan ishtirok etadilar.

3. Tanlovni tashkil etish va muvofiqlashtirish Institut hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Talaba va o'quvchilarning ijtimoiy faolligini oshirish markazi (keyingi orinlarda – Hamkor tashkilot) tomonidan amalga oshiriladi.

4. Tanlov va uning natijalari Institut va Hamkor tashkilot rasmiy veb-sahifalari orqali e'lon qilib boriladi.

II. Tanlovning maqsad va vazifalari

5. **Tanlovning asosiy maqsadi** – O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini izchil amalga oshirish, yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, iste'dodli yoshlarni aniqlash va ularni qo'llab-quvvatlash, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning yangi tizimini yaratishda hamda oliy maqsadlarimizdan biri bo'lgan Uchinchi Renessans poydevorini qurishda yoshlarning huquqiy savodxonligini yaxshilash shuningdek, Konstitutsiya

normalariga muvofiq qonun ustivorligiga erishishda ularning ishtirokini ta'minlash va daxldorlik fazilatlarini qaror toptirishdan iborat.

6. Tanlov vazifalari quyidagilardan iborat:

a) yoshlar ongida Konstitutsiya normalarini hayotga tadbiq etish va qonun ustuvorligini ta'minlashga doir g'oyalarini shakllantirish;

b) yoshlar o'rtasida ilmiy, ilmiy-ommabop, ijodiy, publitsistik maqolalar yozish ko'nikmalarini shakllantirish;

d) yoshlarning o'z iqtidorlarini namoyish etishlari uchun shart-sharoitlar yaratish hamda mustaqil va erkin fikrga ega iste'dodli yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash;

e) Uchinchi Renessans bunyodkorlari bo'ladigan yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalash;

f) yangi O'zbekistonda ma'rifatli jamiyatni barpo etishda qonun ustuvorligini ta'minlashda yoshlarning rolini oshirish.

III. Tanlovni o'tkazish bosqichi va muddatlari

7. Tanlov bir bosqichda tashkil etiladi.

8. Tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan talaba-o'quvchilar o'zlarining ilmiy ijodiy ishlarini 2023-yilning 1-dekabr kuniga qadar *@AIRI_qabul_bot* telegram manziliga o'zbek yoki rus tilida yuboradilar.

9. Tanlov natijalari 7-dekabr kuni e'lon qilinadi.

IV. Tanlovni tashkil etish va o'tkazish tartibi

10. Tanlovni Hamkor tashkilot bilan birgalikda yuqori saviyada tashkil etish va eng munosib g'oliblarni aniqlash va taqdirlash maqsadida Institutning tegishli ichki buyrug'i bilan Tashkiliy qo'mita va soha professor-o'qituvchilari, olimlari, mutaxassislardan iborat tarkibda Hakamlar hay'ati tuziladi.

11. Tanlov ishtirokchilari tomonidan tayyorlangan ilmiy-ijodiy ish (maqola)lar Hakamlar hay'ati tomonidan tanlov shartlari va baholash mezonlari asosida baholanadi.

V. Tanlov shartlari va baholash mezonlari

12. Tanlovga taqdim etiladigan ilmi-ijodiy ish (maqola)lar quyidagi mezonlarda baholanadi:

a) mavzuning mazmun-mohiyati to'laqonli ochib berilganligi;

b) ilmiy-ijodiy ish (maqola)ning stilistik va grammatik jihatdan to'g'ri yozilganligi;

d) mavzuni yoritishda adabiyotlardan foydalanilganlik darajasi va tahliliy yondashuvlar;

e) yuqori ilmiy, badiiy saviyada yozilganligi;

f) mavjud muammo va uni bartaraf etish bo'yicha yechimlarning mavjudligi;

g) yangi g'oya va fikrlarning mavjudligi;

h) original yondashuv, mustaqil fikrlash namoyon etilganligi.

Har bir mezon 10 ballik tizim asosida baholanadi (jami 70 ball)

VI. Ilmiy-ijodiy ish (maqola)larni taqdim etish tartibi

13. Tanlovga taqdim etiladigan ilmiy-ijodiy ish (maqola)lar Microsoft Word dasturida, satr oralig'i 1,5 intervalda, 14 kegl bilan Times New Roman shriftida, matn formati yuqori va pastdan – 2 sm, chapdan – 3 sm, o'ngdan – 1,5 sm joy qoldirilgan holda yozilishi shart.

14. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan ilmiy-ijodiy ish (maqola)lar tanlovda ishtirok uchun qabul qilinmaydi.

VII. Tanlov g'oliblarini taqdirlash

15. Tanlovda yuqori 1-2-3-o'rinni olgan tanlov qatnashchilari esdalik sovg'alari hamda va Institut darajali diplomlari bilan taqdirlanadilar:

VIII. Tashkiliy qo'mita hamda ishtirokchilarning huquq va majburiyatlari

16. Tashkiliy qo'mita quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

a) Tanlovni o'tkazish bo'yicha tezkor qarorlar qabul qilish;

b) Tanlov nizomiga va Hakamlar hay'ati tarkibiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha takliflar kiritish;

c) Hakamlar hay'ati faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish;

f) Tanlovga taqdim etiladigan ilmiy-ijodiy ish (maqola)larni qabul qilish jarayonini tashkil etish;

17. Tashkiliy qo'mita tanlov jarayonida quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

a) Tanlovning barcha ishtirokchilari uchun teng shart-sharoit yaratish;

b) Tanlovning ochiq va oshkora tarzda o'tkazilishini ta'minlash;

d) Tanlov natijalarini belgilangan muddatdan avval e'lon qilmaslik.

18. Tanlov ishtirokchisining huquqlari quyidagilardan iborat:

a) Tanlovni o'tkazish shartlari va tartibi to'g'risida ma'lumot olish;

b) Tanlov g'olibi deb e'lon qilinganida sovrin(lar)ni o'zi yoki ishonchli vakili orqali qabul qilib olish.

19. Tanlov ishtirokchisining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

a) ilmiy-ijodiy ish (maqola)ni topshirishdan oldin Tanlov nizomi bilan to'liq tanishib chiqish;

b) Tanlov nizomida ko'rsatilgan talablarga qat'iy rioya qilish.

IX. Yakuniy qoidalar

20. Tanlovga kelib tushgan ilmiy-ijodiy ish (maqola)lar qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda 1 yil muddat davomida saqlanadi.